

**BOSHLANG'ICH MAKTABDAN OLIY TA'LIMGACHA BO'LGAN BEPUL TA'LIM**

**To'g'onboyeva Ziyodaxon**

O'zbekiston davlat sa'at va madaniyat instituti  
3-bosqich talabasi

**Xolmo'minov Mo'minmirzo**

Ilmiy rahbar: O'zbekiston davlat san'at va madaniyat  
instituti o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang'ich bepul ta'lism, Oliy ta'limga davlat tomonidan qaratilayotgan e'tibor hamda xorij davlatlaridagi ta'lim muassasalari faoliyati, rivojlanish bosqichlari xususida so'z boradi.

**Abstract:** This article talks about free primary education, the state's attention to higher education, and the activities and development stages of educational institutions in foreign countries.

**Key words:** education system, primary education, constitution, compulsory education, foreign experience, private school, qualified personnel

**Kalit so'zlar:** ta'lim tizimi, boshlang'ich ta'lim, konstitutsiya, majburiy ta'lim, xorij tajribasi, xususiy maktab, malakali kadr

*"Axloqiy tarbiyasiz ta'lim – bu jamiyat uchun xavf o'stirishdir"*

**Teodor Ruzvelt**

Bugungi kunda har tomonlama yetuk va malakali kadr-mutaxassislarga har joyda talab va taklif kuchlidir. Bunday kadrlarni yetishtirishda ta'lim va tarbiyaning o'rni beqiyos. Zero, har qanday davlatni dunyoga tanitadigan, ma'lum va mashhur etadigan kishilar yetuk kadrlar va ularning qobiliyatlaridir. Mana shunday kuchli salohiyatlari yoshlarni yetishtirish esa davlat tomonidan ularga qaratilayotgan yuksak e'tiborga bog'liq. Har qanday mustaqil davlatning asosiy qonuni uning Konstitutsiyasi hisoblanadi. Tabiiyki, Konstitutsianing mamlakat fuqarolari hayotidagi o'rni beqiyos. Mustaqil davlatimizning Bosh Qomusida ta'limga ham alohida e'tibor qaratilgan bo'lib, uning 41-moddasida "Har kim bilim olish huquqiga ega. Bepul umumiylilik olish davlat tomonidan kafolatlanadi. Maktab ishlari davlat nazoratidadir" deb ko'rsatilgan.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev O'zbekiston Respublikasining Kostitutsiyasi qabul qilinganligining 26 yilligiga bag'ishlangan tantanali tadbirdagi nutqida: "Farzandlarimizning qobiliyatini ro'yobga chiqarishga bolalikdan

e'tibor berib, ularning kamoloti uchun barcha imkoniyatlarimizni safarbar etsak, yurtimizdan yana ko'plab Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug'beklar yetishib chiqadi. Men bunga ishonaman", - deb ta'kidladilar.

Buning uchun albatta unib-o'sib kelayotgan yoshlarimiz har tomonlama ham ma'nан, ham aqlan, ham jismonan sog'lom va teran fikrlovchi, o'zining nuqtai nazariga ega, o'z erkinligining chegarasini biluvchi va o'zgalar huquqini hurmat qiladigan, bir so'z bilan aytganda har tomonlama yetuk bo'lishlari talab etiladi. Buning uchun yetarlicha shart-sharoit hamda imkoniyatlar yaratilib berilishi zarur. Ana shunday imkoniyat va sharoitlarni yaratib berishning asosiy kafolati bu albatta, Konstitutsiyadir.

Aslida, ta'lif olish huquqini belgilovchi normalarning Konstitutsiyaga kiritilishi jahon tajribasida ilk marta birinchi konstitutsiyalarda - 18-asr oxirida qabul qilingan "birinchi to'lqin"ning "eski" konstitutsiyalarida paydo bo'lган, ya'ni 1791 yilgi Fransiya Konstitutsiyasida ("Konstitutsiya bilan ta'minlangan asosiy qoidalar" birinchi bo'limi) shunday mustahkamlangan: "Davlat ta'limi barcha fuqarolar uchun umumiyligi, barcha odamlar uchun zarur bo'lган qismda bepul ta'minlanadi va tashkil etiladi."

Ikkinchi jahon urushidan keyingi konstitutsiyalar ijtimoiy huquqlarni, jumladan, ta'lif olish huquqini batafsilroq tartibga soladi. Masalan, Yaponiya Konstitutsiyasida shunday deyilgan: "Har kim qonunda belgilangan tartibda o'z qobiliyatiga muvofiq ta'lif olish huquqiga ega. Har kim qonunga muvofiq o'z qaramog'idagi bolalarning majburiy ta'lif olishini ta'minlashi shart. Majburiy ta'lif -bepul."

Ta'lif olish huquqini konstitutsiyaviy darajada batafsil tartibga solish misoli Germaniya Federativ Respublikasining Asosiy qonunida ham keltirib o'tilgan.

Ushbu konstitutsiyaviy hujjatning 7-bandiga Germaniya ta'lif huquqining asosiy tamoyillarini belgilaydi, jumladan:

-maktab ishlari ustidan davlat nazorati;

-bolalarni tarbiyalash huquqiga ega bo'lган shaxslarning bolaning diniy ta'lif olish yoki olmaslik to'g'risida qaror qabul qilish huquqi;

-davlat maktablarida dinni o'qitishning majburiyligi (konfessiyaga aloqador bo'lmagan maktablar bundan mustasno);

-xususiy maktablar tashkil etishning kafolatlangan huquqi va boshqalar.

Bundan shu ma'lum bo'ladiki, barcha rivojlangan davlatlarda ta'limga e'tibor yuksak baholanadi va qonun doirasida mustahkamlab qo'yilgan.

Barchaga ma'lum va mashhur rivojlangan davlatlardan biri Finlyandiyani aynan biz bilgan Finlyandiya qilgan asosiy omillardan biri ham

aynan ta'lim va tarbiya sohasiga qaratilgan yuksak e'tibor ekanligi hammaga ma'lum.

Bilamiz, fin maorifi butun dunyoda yuqori obro'ga egadir. Fin ta'lim tiziming farq qiluvchi xususiyatlari quyidagilardir:

- Bepul ta'lim
- Har bir bola va o'smir ta'lim olish huquqiga ega va maktabga boorish majburiy
- O'quv rejasining yagona milliy asoslari
- Ta'lim faoliyatini tashkillashtirish va boshqarish vazifasini mahalliy darajaga o'tkazib berish
- O'qituvchilarning malakasi va kompetentsiyasiga bo'lgan ishonchning yuqori darajasi
- O'quv jarayonini moslashuvchan ravishda tashkillashtirish imkoniyati
- Butun mamlakat o'rta maktablaridagi ta'lim o'zlashtirish darajasining yuqoriligi[1.213]

Fin maorif tizimida qat'iy ta'lim yo'nalishi bo'Imaganligi kabi ta'lim "tupik"lari ham yo'qdir. O'rta maktabni bitirgan har bir o'quvchi, o'zi istagan holda har qanday darajasi yuqoriroq ta'lim muassasasiga hujjat topshirishi va kirishga harakat qilishi mumkin. Ta'lim olish bepuldir. O'qishga qabul qilish baholar asosida olib boriladi, tanish-bilish, pul yoki ertaroq hujjat topshirish orqali emas.

Shu o'rinda aytish joizki, bugungi kunga qadar bizning ta'lim tizimimizda, ayniqsa, Oliy ta'lim tizimida "korrupsiya" holatlari ko'pgina kuzatilib kelinganligi sir emas. Hayriyatki, yaqin besh yillik ichida bu kabi holatlar deyarli kuzatilmayapti. bu kabi xunuk holatlar butkul yo'qotilsa, bizning ta'lim tizimimiz misli ko'rilmagan yutuq va yuksak cho'qqilarga erishadi.

Bilamizki, bugungi kunda ko'plab ta'lim maskanlarida ta'lim kerakli narsalarni yodlashdangina iborat bo'lib qolgan. Bu esa, o'quvchining fikrlash qobiliyatini so'ndirishi yaqqol aniq. Huddi, mashhur "Uch savdoi" filmidagi kabi.

Ta'limning maqsadi – yodlatishdan tashqari, o'quvchining fikrlash qobiliyatini rivojlantirish hisoblanadi. "So'z isboti bilan" – deganlaridek, Gustav Lebonning – "Omma psixologiyasi" asaridan quyidagi parchani keltirib o'tmoqchimiz:

"Darslarni, grammatikani yod olish, takrorlash va taqlid qilish san'atini egallah – ta'limning eng tuturiqsiz ko'rinishidir. Bu tizim e'tiqodning bir ko'rinishiga o'xshaydi, unda o'qituvchi doim haq hisoblanadi, natijada esa o'quvchilardan zaif va irodasiz shaxslar yetishib chiqadi. Bunday ta'lim tizimi foydasiz, boshlang'ich maktabdagagi o'quvchi foydali bilimlar olish, o'rganish

o'rniga turli fanlardagi ma'lumotlarni yodlash bilan band bo'ladi. Biroq, bu tizimning bundan ham ko'proq zararli jihatlari mavjud. Bu tizimda ulg'aygan kishi o'z yurtiga nisbatan nafrat bilan qaraydi va bu yurtdan qochib ketishga bo'lgan xohishi juda kuchli bo'ladi."

Yuqoridagi fikrlar so'zimiz isbotiga yaqqol misol ekanligi ochiq-oynin namoyon bo'lgan. Davlatimiz hech qachon ta'limdan yuksak e'tiborini ayamagan. Bunga ko'p marotaba guvoh bo'lamiz. Biroq ayrim qo'shtirnoq ichidagi insofli kishilarimiz borki, turli manfaatlar uchun deymizmi yetaricha ijroni ta'minlashmayapti. Shuning uchun ham ko'plab yoshlarimiz orasida ta'limdan norozilik holatlari kuzatilmogda. Agar davlatimiz tomonidan qaratilayotgan e'tibor, hamda ajratilayotgan byudjet mablag'lari yetaricha, maqsadga muvofiq sarf etilsa, ishonchimiz komilki, ta'lim tizimimiz qisqa muddatlarda yuksak cho'qqiga erishadi. Sababi yurtimizda ta'limni rivojlantirish uchun yetaricha shart-sharoitlar yaratish imkonimiz mavjuddir.

Ta'limni rivojlantirishni nafaqat, boshlang'ich maktablardan, balki, maktabgacga ta'lim muassasalaridan boshlab yangicha innovatsiyalarni targ'ib qilgan holda rivojlantirish maqsadga muvofiqdир. Hozirgi kunda aytib o'tayotgan yangicha innovatsiyalar ko'plab xususiy ta'lim maskanlarida joriy etilgan bo'lib, bu kabi yutuqlarni davlat maktablarida ham qo'llab, salohiyatli, teran fikrli yetuk yosh avlodni yetishtirib chiqarsak, bu yoshlar ertaga albatta mamlakat rivoji uchun bor kuch va mahoratlarini sarf etadilar.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Finlandyaning 100ta ijtimoiy innovatsiyasi.\Finlandiya qanday qilib Finlandiya bo'ldi: siyosiy, ijtimoiy va maishiy innovatsiyalar.-T.: "Sharq", 2019.-336bet.

2. <https://darakchi.uz>